

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL | 2024

ISSN: 2181-4031



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ- II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ – 2024

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Тураев Б.

– фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д.

– иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент
2. Ходжаметова Гулчира Илишевна – тарих фанлари номзоди, профессор
3. Ҳайдаров Ўрал Ахмадович – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD), доцент
4. Мусаев Джамалиддин Камалович – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент
5. Жамолдинов Хумоюн Бахтиёрбек ўғли – юридик ф.б.ф.д (PhD), доцент в.б
6. Узакова Зарина Фуркатовна – социология ф.б.ф.д (PhD), доцент
7. Мамадияров Дилшод Уралович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент
8. Тўраев Шавкат Нишонович – фалсафа фанлари номзоди, доцент
9. Бердиева Гулмира Аминовна – тарих фанлари номзоди
10. Гаипов Жасур Бахром ўғли – иқтисодиёт ф.б.ф.д (PhD)
11. Сохибова Лола Жонибоевна – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
12. Шарипов Дилшод Бахшиллоевич – сиёсатшунос, эксперт
13. Содиржонов Мухриддин
Махамадаминович – социология ф.б.ф.д (PhD)
14. Саттаров Дилшод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент
15. Турақулов Акмалжон Анварович – фалсафа ф.б.ф.д (PhD)
16. Каримов Бозарқул Худдайбердиевич – фалсафа фанлари номзоди

“Фундаментал тадқиқотлар” илмий-амалий журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.5 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

JUMANIYAZOV Ilohaddin Ismoilovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi

Biznesni boshqarish (Master of Business

Administration – MBA General)

yo‘nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11060832>

TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH ORQALI SOG‘LOM RAQOBATNI TA‘MINLASH YO‘LLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Respublikamiz tijorat banklari va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini yanada oshirish, tijorat banklarining hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash bo‘yicha 2020-2025-yillarda tijorat banklari tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida shuningdek, moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash maqsadida amaliy masalalari aks etgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, transformatsiya, bank sektori, xususiy sektor, xususiylashtirish, bank daromadi, jahon tendensiyasi.

СПОСОБЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗДОРОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ ПУТЕМ ПРИВАТИЗАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются направления трансформации и реформирования системы коммерческих банков в 2020-2025 годах по дальнейшему повышению популярности коммерческих банков и финансовых услуг, расширению проникновения коммерческих банков в регионы и обеспечению предоставления одинаковых услуг во всех населенных пунктах, на основе опыта трансформации финансового сектора зарубежных стран, а также с учетом мировых тенденций в финансовой сфере. отражены практические вопросы поиска вероятностных решений.

Ключевые слова: коммерческие банки, трансформация, банковский сектор, частный сектор, приватизация, банковские доходы, мировая тенденция.

WAYS TO ENSURE HEALTHY COMPETITION THROUGH THE PRIVATIZATION OF COMMERCIAL BANKS

ANNOTATION

This article discusses the directions of transformation and reform of the commercial banking system in 2020-2025 to further increase the popularity of commercial banks and financial services, expand the penetration of commercial banks into regions and ensure the provision of identical services in all localities, based on the experience of transformation of the financial sector of foreign countries, as well as taking into account global trends in the financial sector. The practical issues of searching for probabilistic solutions are reflected.

Keywords: commercial banks, transformation, banking sector, private sector, privatization, bank revenues, global trend.

Bugun jahon iqtisodiyotida keskin raqobat muhiti ustuvor. Jamiyat talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti ham keskin raqobatdan xoli emas. Bunda, shubhasiz, bank tizimining roli yuqori.

Tijorat banklari faoliyati biznesga asoslangani bois, ular samaradorligini ta'minlash nafaqat milliy, balki xorijiy tijorat banklari hamda hukumatlarning ham doimiy diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bunda esa o'z-o'zidan bank tizimining transformatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususiy sektor banklari davlat sektoridagi banklarga qaraganda ancha rivojlanganligi va yanada samarali ishlashi barchaga ma'lum. Shu sababdan xorijiy investorlar sarmoyalarni davlat banklarga emas, balki xususiy banklariga joylashtirishni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari, davlat banklari odatda xususiy banklariga qaraganda kamroq raqobatbardoshdir.

Xususiy banklarning yana bir afzalliklaridan biri bu xodimlarning o'z ishiga nisbatan ma'suliyatli va jiddiy munosabatda bo'lishlari operatsion riskni pasaytiradi va bu turdagi banklar minimal risk tushunchasiga amal qilishadi.

Fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan salbiy holatlarning asosiy sababi bank sektorida yuritilayotgan bugungi kun talabiga to'laqonli javob bera olmayotgan chora-tadbirlar hisoblanadi. Jumladan, davlat ishtirokidagi banklar va u orqali iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan bir necha muammolarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi mumammo bu-inflatsiya. Inflyatsiya nazariy jihatdan mamlakat iqtisodiyotida pul massasi ko'payib ketishi oqibatida yuzaga keladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Pul massasi regulyatori vazifasini Markaziy bank o'taydi. Lekin tijorat banklarining haddan ziyod ko'p ajratgan imtiyozli, ya'ni pas foizli kreditlari asosida mamlakatda inflatsiya darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

Ikkinchi mumammo bu-yuqori foiz stavkasi. Hozirgi kunda ajratilayotgan kreditlarning 60 foizi bu past foiz stavkasidagi imtiyozli kreditlar hisoblanadi va asosan tijorat banklarida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizdan ortig'i davlat sektoriga, 29 foizi esa xususiy sektorga ajratiladi. Hukumat talabiga binoan tijorat banklari davlat dasturlarini amalga oshirish uchun yirik miqdorda imtiyozli kreditlar ajratadi.

Odatda imtiyozli kreditlar budjet hisobidan subsidiyalashtirilmaganligi sababli, bank bu xarajatni kichik biznesdan yuqori foiz hisobiga undirishga urinadi. Bu urinish esa mamlakat iqtisodiyotida foizlarning yuqoriligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yana bir asosiy muammolarimizdan biri bu-raqobat masalasidir. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklarimizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan ular ma'lum bir sohalarga ixtisoslashtirilgan va bu o'z-o'zidan banklar orasida raqobatga to'sqinlik qiladi.

Agar tijorat banklarini xususiylashtirilsa, birinchi navbatda ular inflatsiyaning asosiy sababchisi - imtiyozli kreditlardan kam miqdorda foydalanishga xarakat qiladi va bu foiz stavkalarini pasaytiradi. Ikkinchidan, foiz stavkalari sog'lom raqobat sharoitida mijozlar uchun kurash jarayonida tabiiy ravishda pasayadi.

Qolaversa, banklar mijozlar bozorida o'z o'rniga ega bo'lish uchun yanada sifatli, tezkor, hamda universal bank xizmatlarni ko'rsatishga va yangi xizmat turlarini joriy qilishga urinadi. Bu o'z-o'zidan bank sohasida modernizatsiya jarayonini boshlab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Tijorat banklari faoliyati to'g'risida va uning mohiyatini aniqlash masalasiga bir qator yondashuvlar mavjud bo'lib, turli iqtisodiy adabiyotlarda bir qator xorijlik olimlar, rus olimlari va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim D.MakNoton o'z ilmiy ishlarida tijorat banklarning kreditlash amaliyotini tashkil qilish va tartibga solish hamda uning samaradorligini oshirish xususidagi masalalarga to'xtalgan holda quyidagi fikrlarni bayon etgan: rivojlanayotgan mamlakatlarda kreditlash amaliyotini tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biri kreditlarni garov ta'minoti asosida berishni odatiy hol sifatida qabul qilishdir, degan xulosaga keldi [1].

Z.M.Anisimovning "Bank strategik menejmentini rivojlantirish" nomli ilmiy tadqiqot ishida bank faoliyati: "tijorat bankining uzoq muddatli faoliyati rejasi bo'lib, u qabul qilingan vazifalar va maqsadlarga erishishni ta'minlaydi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash sharti bilan har bir tarkibiy bo'linma faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi" deb ifodalagan [2].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim O.Sattarov «Bank likvidligi – bu bankning joriy va kelgusi majburiyat va to'lovlari, kredit bo'yicha mijozlar talablari bajarilishini o'z vaqtida va miqdorda, aktivlarni hech qanday zarar ko'rmasdan naqd pullarga aylantirishi yoki maqbul narxlarda resurs sotib olish qobiliyatlari yig'indisidir», deb ta'rif bergan [3].

M. Gregory Mankiwning fikricha, tijorat banklari orqali yaratilgan qo'shimcha pul bu pul mul'tiplikatori deyiladi. Mankiwning bunday tarif berishiga asosiy sabablardan biri mamlakatdagi berilgan barcha kreditlar pul massasini tashkil qilishi bilan izohlaydi. [4].

Mahalliy olimlardan Z. Jumaevning Makroiqtisodiyot nomli kitobida tijorat banklari orqali qo'shimcha pul yaratilishi bank mul'tiplikatori yoki kredit ekspansiyasi deb talqin qiladi [5].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida tijorat banklari faoliyatiga umumiy ta'rif berilgani ammo bu jarayonning umumiy mamlakat moliya tizimiga va inflyatsiya darajasiga ta'siri keng yoritilmaganini kuzatish mumkin. Biz ushbu maqolada, tijorat banklari faoliyati boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga xususan, moliya tizimiga va pulning qiymatiga ta'sirini yoritishga ham kredit operatsiyalari hisobini shakllantirishga harakat qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Xorij an'anaviy tijorat banklarining yuqori sur'atda raqamli tijorat banklarga transformatsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizdagi tijorat banklari transformatsiyasi global raqobatga kirishishda muhimdir. Bunda xususiy banklar transformatsiyasi, asosan, raqamli transformatsiyaga yo'naltirilsa, davlat ishtirokidagi tijorat banklari transformatsiyasi ikkita yo'nalishda tashkil etiladi. Bular, bank aktivlarida xususiy banklarning ulushini keskin oshirishga erishish va raqamli transformatsiya amaliyotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, shuningdek, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini keskin oshirish ko'zda tutilgan.

Shunga qaramasdan, bu jarayonda e'tibor qaratilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlar hamon mavjud. Qolaversa, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy etish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish kabi vazifalar ijrosini ta'minlashda bank tizimi transformatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Respublikamizda 2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, umumiy bank aktivlarida davlat ishtirokidagi banklar ulushi 69 foizni tashkil qilmoqda. Tijorat banklari kapitalida esa 67 foizi davlat ulushidir. Davlat ishtirokidagi banklar faqatgina 35 foiz kredit depozitlar bilan ta'minlangan, qolgan 65 foiz kreditlar esa davlat resurslari hisobidan amalga oshirilgan.

Mana shunday sharoitda xususiy banklar rentabelligi davlat ishtirokidagi banklar rentabelligiga nisbatan 3,5-4 barobar yuqori. 2023-yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, tijorat banklari 8,2 trillion so'm sof foydaga erishgan. Bunda e'tiborni tortadigan jihat shundaki, aynan 8 ta xususiy tijorat banki eng yuqori foydaga erishgan 10 ta tijorat banki ro'yxatidan joy olgan. Xususan, "Kapitalbank" 1 trillion 129 milliard so'mlik sof foydaga erishgan bo'lsa, "Hamkorbank" 915,2 milliard, "Trastbank" 595,5 milliard so'mlik sof foyda bilan dastlabki to'qqiz oyni yakunlagan. Ulardan faqatgina "O'zmilliybank" foydasi yuqori bo'lib, 1 trillion 244 milliard so'mlik foydaga erishgan. Vaholanki, xususiy banklar kapitali miqdori davlat ishtirokidagi banklar kapitaliga nisbatan keskin past.

Mazkur raqamning o'ziyoq davlat ishtirokidagi banklar faoliyati samarasi pastligi va bank tizimida xususiy sektor samaradorligi yuqori ekanini tasdiqlaydi va o'z-o'zidan tijorat banklari kapitalidagi davlat ulushini xususiylashtirish zaruratining naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

1-jadval

*Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida
2024-yil 1-fevral holatiga (banklar kesimida)*

mlrd. so'mda

№	Banklar	Aktiv		Kredit		Kapital		Depozit	
		summa	ulushi , foizda	summa	ulushi , foizda	summa	ulushi , foizda	summa	ulushi , foizda
Jami		652 387	100	469 600	100	98 482	100	242 119	100
Davlat ulushi mavjud banklar		440 315	67	329 591	70	63 869	65	125 111	52
Boshqa banklar		212 072	33	140 009	30	34 614	35	117 008	48

O'zbekiston bank tizimida 2024-yil 1-fevral holatiga 35 ta bank, jumladan, 10 ta davlat ulushiga ega, shuningdek, 30 ta xususiy va 5 ta xorijiy banklar mavjud. 1-fevral holatiga ko'ra, banklar aktivlari 35,2 mlrd dollarni (440,3 trln so'm) tashkil etib, ularning 67 foizi davlat banklariga tegishli. Banklarning majburiyatlari 26,3 mlrd dollarga (329,6 trln so'm) yetdi, shundan 52 foizini depozitlar tashkil etadi.

Banklarning umumiy kapitali 7,9 mlrd dollar (98,4 trln so‘m) darajasida bo‘lib, shundan 65 foizi davlat banklari kapitaliga to‘g‘ri keladi va xususiy banklarga bu kursoratgichlar ancha past va buni yuqorida jadvalda ham ko‘rishimiz mumkin. Ikki yil ichida O‘zbekistonda uchta raqamli bank (TBC Bank, Anor Bank, Apelsin Bank) va masofaviy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan 32 ta fintex-kompaniyasi tashkil etildi. Tadbirkorlar o‘z to‘lovlarining 85 foizini masofadan turib amalga oshiradilar (2017 yildan beri 7 barobarga o‘sgan). Sakkizta bank raqamli identifikatsiya mexanizmidan (Face ID) foydalanmoqda, qolganlari esa testlarni yakunlamogda. 2025 yilda O‘zbekiston bank tizimidagi xususiy sektor ulushini hozirgi 18 foizdan 60 foizga oshirish rejalashtirilmoqda.

Markaziy bank nazorat yukini yengillashtirish bo‘yicha o‘zining liberal siyosatini davom ettirish niyatida, bu tizimning moliyaviy barqarorligiga putur yetkazmagan holda progressiv bank sektorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bank sohasidagi hozirgi holat tahlili davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, ular iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlana olmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Moliya muassasalarini xususiylashtirish, davlat ulushini strategik investorlarga sotilishi ularning iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning yuqori darajasiga chiqishiga, ularda boshqaruvning zamonaviy standart va usullarining joriy etilishiga zamin yaratadi, raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi. Tijorat banklari tizimini transformatsiyasi va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish O‘zbekistondagi tijorat banklarining global raqobatga kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotni faol moliyalashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

ИҚИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi. PF-5992/2020.
2. МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся странах.-ИЭР МБРР. - Вашингтон Д.С., 1993.-С.75
3. Анисимова З.М. Развитие стратегического банковского менеджмента. дис...канд. экон. наук: 08.00.10. - М, 2014
4. Саттаров О. Тижорат банклари ликвидлигини бошқариш. Монография. – Т.: «Extremum press», 2012. –9-б.
5. N. Gregory Mankiw, Mark P. Taylor “Economics” 2014. 558-бет.
6. З. Жумаев, “Макроиктисодиёт” 2005. 68-бет
7. Abdullaev Y., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma.– Т.: «IQTISOD –MOLIYA »,2019 y. –548 bet.
8. Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi» Т. ТМІ., 2015 y.
9. Bank ishi: Darslik/ ed. IN VA. Kolesnikova, P.P. Krolivedskaya. 4-nashr -M.: Moliya va statistika, 2018. -464 b.
10. <https://gazeta.uz/>
11. <https://cbu.uz/>
12. <https://lex.uz/>

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz